

KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDA BOLANING MAKTABGA MOSLASHISHI

*Mamatova Xilola Muhiddinovna,
Guliston Davlat Pedagogika Instituti p.f.b.f.d (PhD)*

hilol-777@mail.ru

*Nomozov Davronbek Amanbay o'g'li
Guliston Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika –Psixologiya yo'nalishi*

I bosqich magistri

nomozovdavron78@gmail.com


Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshi davrida bolaning maktabga moslashishi hamda psixikasida kechayotgan o'zgarishlar, uni maktab yoshiga tayyorlash va o'quv jarayonlariga bo'lgan qiziqishini orttirish borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: aqliy faollik, psixik faollik, jismoniy faollik, kichik bog'cha yoshi, katta maktab yoshi, ehtiyojlar.

Kichik maktab yoshi 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu davr mobaynida bola kichik maktab davri ya'ni ochiqroq qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinf davrini boshidan o'tkazayotgan bo'ladi. Bu davrda bolaning o'qishga, maktabga bo'lgan qiziqishini oshirish, unga muhabbat uyg'ota bilish lozim. Kichik maktab yoshidagi bolalarning eng muhim xususiyatlaridan biri bu uning o'z ehtiyojlariga ega ekanligidir. Bu ehtiyojlarga esa, bolaning o'z portfeli, o'quv qurollari, kitob javoni, dars stoli va shu kabi buyumlarining mavjudligi uning kattalar singari maktabga borishga qiziqishini, istagini oshiradi. Inson borki, u hayoti davomiga o'zini turli ehtiyojlarga moyilligini his etadi. Ushbu ehtiyojlarning mavjudligi ham bola shaxsining rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Bizga ma'lumki, maktabga o'qish jarayoni 7 yosh qilib belgilangan. Chunki, bu paytda bola miyasi yaxshigina rivojlangan, u atrofdagi signallarni, yangiliklarni, o'zgarishlarni yaxshi qabul qiladigan yoshda bo'ladi. Shu o'rinda bolani maktabga qabul qilish jarayoni haqida qisqa fikr bildiradigan bo'lsak, bu paytda bolaning aqliy, jismoniy va psixik jarayonlari tekshiriladi. Ulardan ijobiy natija olingandagina, bola maktabga qabul qilinadi. Lekin, ko'pchilik ota-onalarning xohish-istaklari tufayli bola maktabga muddatidan oldin boradi. Buning ham o'ziga yarasha yaxshi va yomon tomonlari mavjud. To'g'ri, ilmga intilishni qanchalik oldin boshlasa, shunchalik yaxshi, albatta. Ammo, ba'zida bu yoshdagi bolalarning psixikasida ruhiy zo'riqish ham kuzatiladi. Buning natijasida bolada horg'inlikni, darslarga yaxshi qatnasha olmasligini va uyga vazifalariga ulgura olmasligini ko'rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, har bir bolaning o'sib-ulg'ayish davri turlicha kechadi. Shuning uchun, bolani maktabga psixologik tomonlama ham tayyorlash zarur. Chunki, bog'chada do'stlari, o'yinchoqlar orasida erkin o'sgan bolani turli qonun-qoidalarga, majburiyatlarga o'rganishi oson kechmaydi, albatta. Bolaning maktabga borish vaqti yaqinlashgani sari, uni jismonan, aqlan va mativatsion tomonlama yetilganligiga ishonch hosil qilish zarur. 6-7 yoshli bolaning og'irligi oyiga 150-200 grammgacha bo'yi esa 0.5 santimetrgacha o'sa boshlaydi. Bu davrda bolaning ko'rish, eshitish va umurtqa pag'onasini to'g'ri tuta olishiga e'tibor berish lozim.



Katta bog'cha yoshidagi bolalar ko'pincha, maktabga o'qish uchun o'zlarida ehtiyoj sezishadi, ammo bu ehtiyoj turlicha namoyon bo'ladi. "Menga chiroyli forma, daftar, ruchkalar sotib olib berishadi", "Maktabda do'stlarim ko'p bo'ladi, ular bilan o'ynayman, maktabda uxlatishmaydi". Bunday motivlarni ota-onalar ko'pincha bolalarda maktabga nisbatan qiziqishni orttirish uchun ishlatishadi, bu kabi maktabning tashqi ramzlari shubhasiz bolani qiziqishini orttiradi, biroq, bu uning maktabda yaxshi o'qishi uchun asos bo'la olmaydi. Motivatsion tayyorlashga esa "Men otamga o'xshashim uchun yaxshi o'qishim kerak", "Maktabda eng a'lochi o'quvchi bo'lishim kerak" kabilar misol bo'ladi.

Biz ko'p hollarda bolaning o'z fikrini erkin bayon eta olmasligi, o'z fikri to'g'ri yoki noto'g'riligi borasida uzoq muddat o'ylashi, kattaroq bo'lgan jamoa oldida o'zining fikrini tushuntira olmasligini kuzatamiz.

Buning asl sababi shundaki, bola kichkinaligidayoq tazyiqlar orasida o'sgan, unga o'z fikrini ifoda etish uchun shart-sharoit yoki vaqt ajratilmagan bo'ladi. Biz ko'pincha bolani tarbiyalash deb uni kam gapishishga, o'z fikrini bayon eta olmaslikka o'rgatib qo'yamiz. Shu hollarning oldini olish uchun kichik yoshdagi bolani "bu nima?", "bu qanday ishlaydi?", "bu nega bunchalik katta?" kabi oddiy savollariga to'liq javob berishimiz va uni eshitish uchun yetarli vaqt ajrata olishimiz lozim.


O'smirlik davri 10-11, 14-15 yoshlarni o'z ichiga oladi. Bu davr bolalikdan kattalikka o'tish davri hisoblanib, uning ham o'ziga xos psixologik va fiziologik xususiyatlari mavjud. Hozirgi kunda o'smirlar o'zlarining o'tmishdoshlariga nisbatan har tomonlama ustunlikka ega. Ular psixik o'sish, ijtimoiylashuv va jinsiy yetilish jihatidan ulardan birmuncha oldinda.. o'smirlik yoshiga o'tish 5-sinf dan boshlanadi. Bu davrda bolaning psixik va jismoniy taraqqiyoti tezlashadi, o'zini kattalardek tuta boshlaydi. Kichik yoki katta yoshdagi bolalarni tarbiyalashdan ko'ra, o'smir yoshdagi bolalarni tarbiyalashda bir muncha qiyinchiliklarga duch kelinadi. O'smir yoshda bolalar kichik yoshdagi paytidan ancha farq qiladi. Ular vaqti kelganda juda quvnoq, ayrim vaqtlarda esa o'ta jizzaki yoki asabiy bo'lib qolishadi. Bu vaqtda ularni to'g'ri tushuna olish va ularga to'g'ri yondashuv bera olish lozim. Ko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarining asabiy va jizzaki bo'lib qolganliklaridan shikoyat qilishadi. O'smirlik davrida bola organizmida garmonal o'zgarishlar sodir bo'ladi va bu o'zgarishlar o'z ta'sirini bolaning xatti-harakatlarida aks ettiradi. Bu paytda ular juda ta'sirchan, halovatsiz yoki o'ta asabiy tarzda ko'rinishadi. Ular ko'pincha javobsiz qolgan muhabbat, yolg'izlik yoki ota-ona va do'stlari bilan o'zaro kelishmovchiliklar kabi muammolardan aziyat chekishadi. Darhaqiqat, bunday hollar hamma bolalarda ham kuzatilavermaydi, ammo inson organizmidagi o'zgarishlar vaqti kelganda bunday o'zgarishlarni namoyon eta boshlaydi. Bu paytda ota-onalarning vazifasi shundaki, o'smirlar bilan til topisha olish, ular bilan do'stona munosabat o'rnatib, ko'proq oilaviy shirin suhbatlar uyushtirish, oila davrasida nonushta, tushlik qila turib ularning hayoti bilan qiziqishlarini bildirish zarur.[1]

Maktabda bola tizimli ravishda yangiliklar oladi, bu o'quvchilarning kundan kunga orttirib borayotgan hilma-xil mavzudagi bilimlarning manbaidir. Bolaning bilimlarni sistemali tarzda o'zlashtirishi natijasida undagi bilimning doirasi kengayib boradi, aqliy jarayonlar rivojlanadi shu bilan bir qatorda bolaning emotsional-irodaviy xususiyatlari qayta tarkib topib rivojlana boshlaydi. Maktabdagi ta'lim jarayonining o'zi bolaning sezgi, idrok, tafakkur, nutq va diqqatlariga yangi talablar qo'yadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning yuqorida ko'rsatilgan hilma-



xil qiziqishlari bilan bir qatorda individual qiziqishlari ham tug'ula boshlaydi. Ba'zi o'quvchilar rassomlikka ko'proq qiziqsalar, ba'zilar musiqa, shariyatga muhabbat qo'yadilar. Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyatiga ko'ra faqat muayyan bilim ko'nikma va malakalarni egallashga qartilmay, balki o'quvchanlik istagi aks ettirishdan ham iboratdir. Kichik maktab yoshdagi bolalar tez chalg'iydilar, uzoq vaqt diqqatlarini bir narsaga qarata olmaydilar, ta'sirchan hamda emotsional bo'ladilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi faolligining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib ular jismoniy, ijtimoiy va psixik, faollikdir. Jismoniy faollik-sog'lom organizmning harakat qilishga bo'lgan turli mavjud to'siqlarni yengishda tabiiy ehtiyojdir. Psixik faollik - bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagi predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bolaning maktabda o'qishga tayyorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi. Shaxsiy tayyorgarlik-motivatsion sohaning rivojlanganlik darajasi, bilish qiziqishning mavjudligi, ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zining maxsus o'rni bo'lishiga intilish, muhim baholanadigan faoliyatni bajarish-o'quvchi bo'lishdir. Intellektual tayyorgarlik tevarak-atrofdan mo'ljal olish, bilimlar zahirasi mavjudligi; idrok va ko'rgazmali-obrazli tafakkurning ma'lum darajada rivojlanganligi bilan izohlanadi. Umumlashtirish darajasi-narsa va hodisalarni farqlash va umumlashtira olish ko'nikmasidir. Harakat tayyorgarligi - mayda motorika katta harakatlarni amalga oshirish (qo'l, oyoq, tana); O'quv faoliyatiga tayyorgarlik: kattalarni diqqat bilan eshita olish va uning ko'rsatmalarini aniq bajarish, topshiriqlarni mustaqil bajarish; chalg'ituvchi omillarga e'tibor bermasdan topshiriqni bajarishga kirishish. Bu davrda avvalo bilish sohalari, so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzilikka bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Obrazlilik deyilganda bolalarning turli obrazlarni yaratishi, ularni o'zgartirishi va erkin harakatga keltirishi, ramzlilik deyilganda esa belgilar tizimi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi. [2]

Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar - o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxs xususiyatlari tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topa boshlaydi. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg'iz holda sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin va shular asosida ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlarini shakllanadi. Kichik maktab davridan boshlab o'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga amaliy va psixologik jihatdan tayyorlashga e'tibor beriladi. Bu davr ichida bolalarda mehnatga nisbatan ongli, ijobiy munosabatda bo'lish asoslari tarkib topa boshlaydi. Ularda mehnatga havas uyg'onadi, mehnatga va mehnat ahllariga hurmat bilan qarash, ijtimoiy foydali ishlarda qatnashishga intilish singari fazilatlar tarkib topadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik, asosan, o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar zarur bo'lgan harakat va amallarni darhol o'zlashtirib va egallab olmaydilar, ko'proq ortiqcha va chalkash harakatlar qiladilar. Mehnat jarayonidagi turlicha ish harakatlarini, chunonchi: tikish, to'qish, kiyish yoki taxtalarni randalash kabi ish harakatlarni qiynalmasdan va birmuncha silliq bajaradigan bo'lish uchun har bir ishda har qanday harakatlar qilish



kerakligini va bu harakatlarning qay yo'sinda amalga oshirilishini aniq bilib olish va esda qoldirish kerak bo'ladi. Harakatlarni qayta-qayta takrorlash, mashq qilib borish natijasida kichik yoshdagi o'quvchilarda uchrab turadigan ortiqcha va chalkash harakatlar yo'qolib boradi.

O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qishga harakat qiladi. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatlarini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyatlari bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emosional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'chadavridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o'zlariga o'zlari baho beradilar. Shuningdek, o'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi, turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga ham bog'liq bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha -yuqori, adekvat -mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida shakllantirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab davrida boshqarishdan o'z-o'zini boshqarishga o'tishi nihoyatda muhimdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu maqola orqali siz o'zingizga ma'naviy ozuqa olishingizga shubha qilmaymiz. Maqola orqali siz bolaning maktabga kirishi, ya'ni hayotidagi burulish chog'idagi asosiy faoliyati psixologik xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lasiz. Ushbu maqola orqali kichik maktab yoshidagi bolaning psixologik, fiziologik, va individual qiziqishlari borasidagi bilimlaringizni mustahkamlasangiz bu bizning yutug'imiz hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Sherimbetova Z.Sh. "Boshlang'ich sinflardagi o'zlashtirmovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari "Ps.f.n...avtopef.-T.2007 17-bet.

2.Soliyeva D.A. "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'quv mustaqilligini rivojlantirishning psixologik jihatlari" Ps.f.n...avtoref -T:2012 24-bet.

3.Mamedov K.Q."Maktabgacha yoshdagi bolalar va o'quvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlari "Psix.fan.dokt.dot.T:O'zMU 2004 47-bet.

4.Samarova Sh.R. "Boshlang'ich sinf o'quvchilari fikrlash jarayonlarining diagnostikasi va dinamikasi" (2-4 sinf o'quvchilari misolida) Psix.fan.nomz.dot.T:O'zMU. 2007 157-bet.

5.[1].<file:///C:/Users/User/Downloads/kichik-maktab-yoshidagi-bolaning-maktabga-moslalishi-muammosi.pdf>

6. [2]. <https://jdpu.uz/kichik-maktab-yoshi-davrida-psixik-rivojlanish-xususiyatlari-3/>

